

Sirdaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-iyun holatiga ko'ra, viloyatda 1188 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ishlab chiqarish sanoatida taqsimlanganda yuqori ulush 305 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,7 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 208 tasi (17,5 %) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 83 tasi (7,0 %) kiyim ishlab chiqarishga, 77 tasi (6,5 %) tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga, 70 tasi (5,9 %) mebel mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-iyun holatiga ko'ra





II. Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8036,4* mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 94,5 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Sirdaryo viloyati	8036,4	94,5
Guliston sh.	582,9	106,5
Shirin sh.	2565,5	66,8
Yangiyer sh.	462,8	115,4
Boyovut tumani	1021,0	112,4
Guliston tumani	255,0	109,3
Mirzaobod tumani	133,9	109,4
Oqoltin tumani	214,5	113,4
Sardoba tumani	189,7	110,9
Sayxunobod tumani	329,2	108,5
Sirdaryo tumani	1406,4	109,3
Xovos tumani	168,5	109,7

* viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (132249,8 ming so'm), Sirdaryo tumanida (10079,3 ming so'm), Yangiyer shahrida (9397,6 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (8616,5 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (92,8 %)ni tashkil etgan bo'lsa, Yangiyer shahrida (112,8 %), Oqoltin tumanida (111,8 %), Boyovut tumanida (110,3 %), Sardoba tumanida (109,2 %), Xovos tumanida (107,8 %) qayd etilib, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-may oylarida




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 4964,2 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (61,8 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 43,9 mlrd so'm (0,5 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 2982,7 mlrd so'm (37,1 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 45,6 mlrd so'm (0,6 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi

2025-yilning yanvar-may oylarida





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 30,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 88,1 % ga ko'paygan), 11,6 ming tonna kepak mahsulotlari (76,7 % ga ko'paygan), 290,6 ming litr 100 % spirt aroq mahsulotlari (88,4 % ga ko'paygan) hamda 1,7 ming tonna dori vositalari (64,1 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may*	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may
Tarkibida alkaloidlar bo'lgan yoki bo'lmagan, lekin gormonlar yoki antibiotiklar bo'lmagan medikamentlar, tonna	2373,0	1047,3	1718,8
Boshqa plastmassalardan (etilen polimerlaridan tashqari) qoplar va sumkalar (jumladan konus shaklidagi), tonna	7500,0	6116,0	6496,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	16,4	12,7	30,4
Don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar, ming tonna	6,4	5,4	11,6
Boshqa o'simlikdan yog' olishda hosil bo'lgan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar, tonna	3158,3	17,3	2901,4

* 2023-2024-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 31,4 % (2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,8 %), to'qimachilik, kiyim-kechak, teri va unga tegishli kimyoviy mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 25,8 % (2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,3 %), rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 7,8 % ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,2 % ni (2024-yilning yanvar-may oylarida 5,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,8 % (3,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 32,4 % (19,7 %), quyi texnologiyali 59,6 % (71,1 %) ni tashkil etgan.

Sirdaryo viloyatida yirik korxonalar tomonidan qop mahsulotlari ishlab chiqarish *yanvar-may oylarida*

Qop mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar-may oylarida 1953,0 tonna narsa joylanadigan qoplar va paketlar (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 % ga oshdi), 6496,0 tonna boshqa plastmassalardan (etilen polimerlardan tashqari) qoplar va sumkalar (jumladan konus shaklidagi) (6,2 % ga ko'paydi) ishlab chiqarildi.

Sirdaryo viloyatida yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan qoplar, tonnada *yanvar-may oylarida*





**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida
sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

2025-yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiyasini taqsimlash, uzatish hamda quvurlar orqali bug' va issiq suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 61,8 % ni, gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar esa 83,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may*	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln. kv.t.s	7273,6	6382,2	8816,6
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	7224,5	6307,9	3310,8
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	0,0	0,0	5436,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	49,1	74,3	69,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlashda 21,4 % ga kamayish, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish 20,8 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-may*	2024-yil yanvar-may*	2025-yil yanvar-may
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar mlrd so'm	17,8	35,3	33,1
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar mlrd so'm	6,0	9,1	12,6

*2023-2024-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3653,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 45,5 % ni tashkil etdi (2024-yilning yanvar-may oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 28,0 % ni tashkil etgan).



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfqheheh5446456>



Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
Sh. Bakiyeva
67 236-70-00 (2010)

Манзил:

